



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

ADVOKATLIK FAOLIYATIDA RAQAMLI ISLOHOTLAR

Maxkamboyeva Diyorabonu Raxim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Advokatlik faoliyati yo‘nalishi magistranti

dmakhkamboeva@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining advokatlik tizimida amalga oshirilayotgan raqamlı takomillashtirish jarayonlarini tahlil qiladi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining advokatlik faoliyatiga ta’siri, joriy etilgan raqamlı yechimlarning samaradorligi va xalqaro tajriba asosida tizimni yanada rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamlı takomillashtirish, advokatlik tizimi, axborot texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi, sun’iy intellekt, huquqiy xizmatlar, raqamlashtirish strategiyasi.

XXI asr raqamlı texnologiyalar asri bo‘lib, ular jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Huquqiy faoliyat sohasi ham bu jarayondan chetda qolmay, jahon miqyosida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli raqamlashtirish jarayonlari advokatlik tizimini ham qamrab olgan. “Raqamlı O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi bilan birga, mamlakatda huquqiy xizmatlar sohasini raqamlashtirish jarayoni tezlashdi. Advokatura sohasi bugungi kunda an’anaviy ish yuritish shakllaridan zamonaviy raqamlı texnologiyalarga asoslangan xizmat ko‘rsatish tizimiga o‘tish davrida turibdi.

Raqamlı takomillashtirish – bu raqamlı texnologiyalar yordamida tashkilotning barcha faoliyat sohalarini tubdan yangilash va zamonaviylashtirish jarayonidir. Huquqiy faoliyatda bu jarayon faqat texnologik rivojlanish bilan cheklanib qolmay, balki ish jarayonlarini zamonaviy tarzda tashkil etish, xizmat ko‘rsatish usullarini yanada qulaylashtirish va fuqarolar bilan ishlash tartibining butunlay yangilanishini ham nazarda tutadi. Advokatlik tizimida raqamlı takomillashtirish quyidagi asosiy



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

jihatlarni o‘z ichiga oladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, elektron hujjat aylanishi tizimlarining yaratilishi, sun’iy intellekt elementlarining qo‘llanilishi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini mukammallashtirish kabilar.

O‘zbekistonda advokatlik tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat yuritadi. Tizimning institutsional tuzilmasini O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi, uning hududiy boshqarmalari va individual advokatlik tashkilotlari tashkil etadi. Hozirgi vaqtida mamlakatda 7000 dan ortiq advokat ro‘yxatga olingan bo‘lib,¹ ularning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar – “Advokatura to‘g‘risida”gi hamda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlar 1996-1998 -yillarda qabul qilingan. Vaqt o‘tishi bilan ushbu qonunchilik bazasiga raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangi normalar kiritildi. “e-advokat.uz” portalı advokatlik tizimidagi eng muhim raqamli yechim hisoblanadi. Ushbu platformaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, u asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi – advokatlar reyestrini yuritish, elektron advokat tanlash, hisobot va statistikalar, ta’lim va qo‘llanmalarni ta’minlash. Biroq, platforma jismoniy va yuridik shaxslar bilan aloqa, ish yuritish va professional faoliyatni qo‘llab-quvvatlash funksiyalari jihatidan cheklangan imkoniyatlarga ega. “vka.sud.uz” elektron sudlov tizimi advokatlarga sud jarayonlariga onlayn ishtirot etish imkonini beradi. COVID-19 pandemiyasi davrida ushbu tizimning ahamiyati yanada ortdi. Video konferensiya texnologiyalari fuqarolar bilan masofaviy konsultatsiya o‘tkazishda samarali ekanligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston advokatlik tizimida raqamli transformatsiya jarayoni hali o‘z boshlang‘ich bosqichlarida bo‘lib, mavjud platformalar ko‘plab funksional cheklovlarga ega. “e-advokat.uz” portal asosan ma’lumot berish funksiyasini bajarsa-da, jismoniy va yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatish, professional ish yuritish va moliyaviy hisobot berish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan. Mobil ilovalar esa zamonaviy qurilmalar bilan to‘liq moslashuv va keng funksional imkoniyatlar jihatidan sezilarli kamchiliklarga ega.

¹ <https://e-advokat.uz/#:~:text=Statistika,Advokatlar%20hay%CA%BCati>



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

Boshqa tomondan, pandemiya davrida mosofaviy ish yuritish va onlayn konsultatsiyalar ehtiyoji advokatlik sohasida raqamli yechimlarning zarurligini yanada yaqqol ko‘rsatdi. Bu holat an’anaviy ish yuritish usullarining zamonaviy talablarga javob bermasligini va tizimli raqamlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Shu sababli, mavjud raqamli platformalarni tubdan takomillashtirish va yangi texnologik yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, advokatlik tizimini muvaffaqiyatli raqamlashtirish va zamonaviylashtirish jarayonida bir necha muhim omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Birinchidan, davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlash va strategik yo‘l-yo‘riq berish zarur. Ikkinchidan, yetarli moliyaviy resurslarni ta’minlash va ulardan oqilona foydalanish muhim. Uchinchidan, malakali kadrlar tayyorlash va bosqichma-bosqich amalga oshrish strategiyasini ishlab chiqib, unga qat’iy rioya qilish talab etiladi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, O‘zbekiston advokatlik tizimining raqamli modernizatsiyasi tizimli yondashuv, uzoq muddatli rejalashtirish va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki asosida amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayon davlat organlari, Advokatlar palatasi va har bir advokatning o‘zaro hamkorlik harakatlarini talab qiladi. Faqat bunday tizimli yondashuv orqali O‘zbekiston advokatlik tizimi xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarilishi, global raqobatda o‘z o‘rnini mustahkamlashi va insonlarga yuqori sifatli huquqiy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. 2020-yil 5-oktyabr. PF-6079-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni. 1996-yil 27-dekabr. O‘RQ-349-I-son.
4. Legal Technology Market Analysis and Trends Report 2023. Thomson Reuters Institute, 2023.
5. European e-Justice Portal. Digital Justice in the European Union. European Commission, 2023.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

-
- 6. Singapore's Smart Nation Initiative: Digital Legal Services Framework. Ministry of Law Singapore, 2022.
 - 7. Digital Transformation in Legal Services: A Global Perspective. Harvard Law Review, Vol. 134, 2021.
 - 8. Artificial Intelligence in Legal Practice: Opportunities and Challenges. Stanford Law Review, Vol. 73, 2021.